
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZILAR MAHKAMASINING QARORI

INTERNET TARMOG'IDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUKUMAT PORTALINI YaNADA RIVOJLANTIRISH ChORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 50-51-son, 521-modda; 2009 y., 17-son, 212-modda; 2013 y., 2-son, 23-modda; 2015 y., 26-son, 338-modda; 2016 y., 23-son, 269-modda)

«Axborotlashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi [Qonunini](#), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2005 yil 8 iyuldaggi PQ-117-son [qarorini](#) bajarish yuzasidan hamda Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalini yanada rivojlantirish maqsadida Vazilar Mahkamasi qaror qildi:

(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2016 yil 3 iyundagi 188-sonli [garoriga](#) asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2016 y., 23-son, 269-modda)

(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2016 yil 3 iyundagi 188-sonli [garoriga](#) asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2016 y., 23-son, 269-modda)

3. Belgilab qo'yilsinki, Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali xarajatlarini moliyalashtirish, moddiy-texnik ta'minlash va unga xizmat ko'rsatish tasdiqlangan smeta doirasida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2015 yil 27 iyundagi 171-sonli [garori](#) tahririda — O'R QHT, 2015 y., 26-son, 338-modda)

4. Vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazilar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

bir oy muddatda axborot ro'yxatlari va taqdim etish muddatlari, shuningdek axborot materiallarini joylashtirishga ruxsat berish va axborot xizmatlari tomonidan Guruhga keyinchalik Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalida joylashtirish uchun axborot taqdim etish uchun mas'ul shaxslarni tayinlash bo'yicha tadbirlar rejasini ishlab chiqsinlar va tasdiqlasınlar;

(4-bandning uchinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2009 yil 21 apreldagi 116-sonli [garoriga](#) asosan chiqarilgan— O'R QHT, 2009 y., 17-son, 212-modda)

o'z rasmiy axborot resurslarining qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini bir yilda kamida ikki marta ekspertizadan o'tkazsinlar.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinosi A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYoEV

Toshkent sh.,

2007 yil 17 dekabr,

259-son